



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



**GOSPITAL PEDAGOGIKA SOHASIDAGI DOLZARB MASALALAR, ILG'OR
TAJRIBALAR VA ISTIQBOLLAR**

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ В
ОБЛАСТИ ГОСПИТАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ**

международная научно – практическая конференция

**CURRENT ISSUES, ADVANCED EXPERIENCES AND PROSPECTS IN THE
FIELD OF HOSPITAL PEDAGOGY**

international scientific - practical conference



3-dekabr 2024-yil



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

**GOSPITAL PEDAGOGIKA SOHASIDAGI
DOLZARB MASALALAR, ILG'OR
TAJRIBALAR VA ISTIQBOLLAR**
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ПЕРЕДОВОЙ
ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ В ОБЛАСТИ
ГОСПИТАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ**
международная научно – практическая конференция

**CURRENT ISSUES, ADVANCED EXPERIENCES
AND PROSPECTS IN THE FIELD OF HOSPITAL
PEDAGOGY**
international scientific - practical conference

203.	Юлдашева Гулшад Тилеуовна Пономаренко Вероника Павловна	ВЛИЯНИЕ ГЕЙМИФИКАЦИИ НА МОТИВАЦИЮ УЧАЩИХСЯ В ИЗУЧЕНИИ ИНФОРМАТИКИ: ИГРОВЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ (БАЛЛЫ, УРОВНИ, ДОСТИЖЕНИЯ) ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ	945
204.	Xolmo'minov G'ofur Bobonazarovich Narzullayeva Nilufar Umidjon qizi	QADIMGI SHARQDA FALSAFIY BILIMLARNING PAYDO BO'LISHI	951
205.	Туганова Луиза Джураевна Бегалиева Шахзода Бекниязовна	РОЛЬ РЕЛИГИИ В НАЦИОНАЛЬНОМ СОЗНАНИИ И НАЦИОНАЛЬНОМ САМОСОЗНАНИИ	954
206.	Usmonova Rayhona Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna	IJTIMOIY TARMOQDAGI TAHIDLAR	960
207.	Koshanova Nilufar Maxsudovna	MADANIYAT- JAMIYATNING MAVJUDLIK ASOSI VA YASHASH USULI SIFATIDA	965
208.	Turgunova Nargiza A'zamjon qizi Koshanova Nilufar Maxsudovna	ISLOMDA KASB ODOBLARI	971
209.	Boltaboyeva Mukarramxon Koshanova Nilufar Maxsudovna	ISLOM -MA'RIFATPARVAR DIN SIFATIDA	974
210.	Tojiyev Erali Xoshim O'g'li Koshanova Nilufar Maxsudovna	ISLOM MA'RIFATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO ISLOM AKADEMIYASINING O'RNI	979
211.	Ernazarova Munisxon Jo'raqulovna Bahodirova Mashhura Zafarovna	UMUMIY ORTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM JARAYONIDA QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH	986
212.	Ernazarova Munisxon Jo'raqulovna Ikromova Muqaddas	UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM JARAYONIDA QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH	991

213.	Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna	TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOG KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	996
214.	Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna	YOSHLARNING INTELEKTUAL SALOHİYATINI ORTIRISHNING BOSH OMILI	1000
215.	Ergashev Shirinbobo Xotam o'g'li	NUTQ SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH VA MAZMUNI	1005
216.	Ziyaboyeva Hilola Rixstillayevna	O'ZBEKİSTONDA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	1012
217.	Badalmatova Ziyoda G'ofurjonovna	MA'NAVIY MEROSNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	1017
218.	Xamidova Feruza Shamsiddinovna	OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKILANTIRISH	1025
219.	Abdullayeva Malika Bazarbayevna	BITIRUVCHI KURS TALABALARINING MA'NAVIY VA MADANIY FAOLLIGINI OSHIRISH	1030
220.	Gulmatova Shohsanam Diyor qizi	TALABALAR ORASIDA ZARARLI ILLATLARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR	1034
221.	Rashidova Gulandom Mirzayakubovna	TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA TALABALARNING FAOLLIGI	1038
222.	Tashmuhammedova Ilmira Suyundikovna	OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY MA'RIFIY TADBIRLAR O'TKAZISHNING MOHIYATI	1040
223.	Maxanova Aliya Muratovna	BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISH TALABALARIDA PSIXOLOGIK KOMPITETNLIKNI SHAKLLANTIRISH TAMOILLARI	1044

MADANIYAT- JAMIYATNING MAVJUDLIK ASOSI VA YASHASH

USULI SIFATIDA

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Fakultetlararo ijtimoiy fanlar”
kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori
Koshanova Nilufar Maxsudovna
koshanovanilufar512@gmail.com**

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda madaniyat va jamiyatning o`zaro dialektik aloqadorligi, madaniyat ijtimoiy hodisasining inson hayotidagi ahamiyati mahalliy va xorijiy manbalar assosida o`rganilgan, hamda tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: madaniyat, jamiyat, faoliyat, ijtimoiy me`yorlar, xulq-atvor, dogmatizatsiya, kognitiv, informativ.

Madaniyat inson hayotida yuzaga kelgan eng muhim va qadimiy hodisalardan biridir. Madaniyat hodisasi inson bilan birga vujudga keldi va rivojlandi. Odamzodning boshqa tirik mavjudotlardan sifat jixatdan ajralib turishini ta’minlab berdi. O`z navbatida madaniyat tabiat va jamiyat o`rtasidagi vositachi vazifasini ham o`taydi. Madaniyat deyilganda kundalik hayotimizda asosan san’at, adabiyot, musiqa, she’riyat, xulq-atvor tizimlari tushuniladi. Ammo ilmiy jixatdan bu tushuncha juda keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Jamiyatda kishilarning barcha faoliyat turlari: hayot tarzi, fikrlash va his qilish uslubi, inson ongli faoliyatining barcha mahsullari madaniyatga kiradi. Madaniyat insonga biologik jixatdan tegishli bo`lmagan insonlar tomonidan yaratilgan artefekatlardir.

Kingli Devis mazkur tushunchani quyidagicha ta”riflaydi: “ madaniyat - bu sana’at, musiqa, arxitektura , adabiyot, fan va barcha texnologiyalar, falsafa, ijtimoiy institutlar, diniy, axloqiy va estetik qadriyatlarni o`z ichiga olgan murakkab bir butundir”. Mac Iverning fikricha, “madaniyat - bu tabiatimizning yashash tarzimizdagi va fikralashimizdagi, adabiyotimizdagi, dam olish va zavqlanishimizdagi ifodasidir”, deydi.[1]

Jamiyatning yuzaga kelishi madaniyatni yuzaga keltirgan bo`lsa, o`z navbatida jamiyatning mavjud bo`lishi ham madaniyatning mavjudligi bilan uzviy bog`liq. Bu ikki ijtimoiy hodisa bir-birisiz mavjud bo`la olmaydi. Garchi bu tushunchalar bir-biriga uzviy, chambarchas bog`liq bo`lsada, ular o`rtasidagi munosabatni turlicha talqin qilish mumkun. M.S.Kogon madaniyatni jamiyat faoliyati mahsuli, jamiyatni esa bu faoliyatning predmeti deb hisoblaydi.[2] E.Markaryan esa madaniyatni jamiyatning yashash usuli, ya`ni, funksiyasi sifatida namoyon bo`ladi, deb hisoblaydi. Turli davrlarda sotsiolog va faylasuflar mazkur tushunchani turlicha talqin qilganlar. Jamiyat bu shunchaki odamlar to`dasi emas, balki, insonlarning aloqalari (munosabatalari)ni birlashtirgan yaxlit tizim hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar inson faoliyatining zaruriy sharti hisoblanadi. Inson dunyoga kelgach u mavjud munosabatlar tarmog`iga, ijtimoiy rollarga asta-sekin moslashishni boshlaydi. Bu jarayonda madaniy ana'analar o`zlashtiriladi, kishi madaniyat subyekti sifatida harakat qila boshlaydi. Demak, madaniyat inson faoliyatining bir usuli, ijtimoiy munosabatlar esa uning uchun bir maydon, tramplin hisoblanadi. Jamiyat esa insonning faoliyati uchun maydon yaratadi, chegaralarini, muayyan bir ma'noda esa faoliyatning mohiyatini, usullarini belgilaydi. Muayyan tarixiy davrga tegishli bo`lgan madaniyat o`z navbatida o`sha davr ijtimoiy amaliyotining o`ziga xos usullarini o`zida mujassam qiladi.

Jamiyat shaxsga ijtimoiy ta'sir ko'rsatishning yo'llari va vositalari, munosabatlar va institutlar tizimi sifatida ishlaydi.

Shunday qilib, jamiyat munosabatlar va institutlar tizimidir, ya`ni shaxsga ijtimoiy ta'sir ko'rsatish yo'llari va vositalari va madaniyat uning jamiyatdagi faoliyatida ijtimoiy tartibga solish shakllari bilan belgilanadi. Jamiyatdagi o`rnatilgan ijtimoiy me'yorlarlarga bo`lgan munosabatda ixtiyorilik belgilanmagan. Me'yorlarga rioya qilmaslik, undan og'ishlar uchun darjasiga qarab ijtimoiy jazo yoki mukofatlar:hurmat,obro', nafrat, jarima, jamoatchilik tanqidi va hokazo).

Insonning o`z tabiatini o`zgartirishi oz navbatida ikkinchi tabiatni yaratish jarayoni bilan birga kechadi. Bu o`rinda jamiyat insonning rivojlanishi uchun sharoit

yaratadi. Go`dak tug'ilishi bilan uning shaxsiyati shakllana boradi. Bu jarayon yaqinlarining g'amxo'rligi va tashqi muhitning ta'sirida sodir bo`ladi. Ammo bolalik insonning butun hayoti davomida chuqur iz qoldiradi.

Amerikalik antrapolog va psixoanalitik Abram Kardinger shaxs ma'lum bir madaniyatni maksimal darajada qabul qilishi asosida unda eng xavfsiz va qulay holatga erishadi, deydi. Boshqa bir amerikalik antropolog Rut Benidikt har bir xalqning madaniy konfiguratsiyasining o`ziga xosligi, muayyan bir xalq o`zi uchun begona elementlarning rivojlanishiga yo`l qo`ymasligi, madaniyatda faqat din, oilaviy hayot, iqtisodiyot, siyosiy va h.z unsurlargina rivojlanadi. Yana bir amerikalik antropolog M.Mid fikricha madaniyat xulq-atvor standartlari bo`yicha qanday bo`lish kerakligini buyuradi va har bir inson ma'lum bir madaniyat, ma'lum bir jamiyatning muhriga ega bo`ladi. U madaniyat asosida bolalar jamiyatda nimani his qilish, va nimaga harakat qilishni o`rganadilar deydi.

Haqli savol tug'iladi nima uchun madaniyatda o`zgaruvchanlik mavjud? Qanday qilib bir narsani odamlar har xil qabul qiladilar? Ba`zi bir jamiyatlarda qo`shma oila tizimi mavjud bo`lsa, boshqalarida bu tabu hisoblanadi. Ba`zi odamlar yalang'och kiyimsiz yashasalar, ba`zilari boshdan oyoq yopiq kiyinadilar. Qarg'a hindulari o`ta jangaovor xalq bo`lsa, shimol xalqi eskimoslar nihoyatda sokin xalq.

Butun dunyo bo`ylab insonlarning turli guruhlari o`rasida, shuningdek tarixning turli davrlarida odamlar guruhi orasida madaniy xulq-atvorning turfa namunalarini ko`ramiz. Nega ularning madaniyati har xil? Madaniyat o`zgaruvchanligi omillariga nimalarni sanash mumkun? Eng ibtidoiy madaniyat namunalari haqida fikr yuritadigan bo`lsak, biron bir shaxs yoki guruhning qaysidir ongsiz hatti-harakatlariga boshqalar taqlidan harakat qilishlaridan, qaysidir odatlar ularning madaniyatiga aylangan. Madaniyatning o`zgaruvchanligida geografik muhit ham katta rol o`ynaydi. Misol uchun Hindistonda ilonlarga sig'inish tabiatida ilonlarning ko`pligi va ularga nisbatan qo`rquv bilan bog'liq bo`lsa, eskimoslar uylarini qordan quradilar, Janubiy Afrikadagi bushmenlarning hatto uylari ham yo`q, Yangi Gvineyada Manuslar dengizga qo`yilgan qoziqlarda qurilgan yog'och kulba uylarda yashaydilar. Frot daryosi kichik loy taxtachalarni yasash uchun qulay

bo`lgan, shuning uchun mixxatni loy taxtachalarga yozgan. Qog'oz o'rnida Misrliklar papirus daraxtidan foydalanagan. Demak, yuqoridagi fikrlardan ko`rinib turibdiki, tabiat qanday xom-ashyo (material) bilan siylagan bo`lsa, madaniyatdan foydalanish ham shunga mos bo'ladi. Dunyoda turli-tuman madaniyatlarning mavjudligi , madaniyatdan foydalanishda hamma joyda materiallarning har xilligi bilan ham bevosita bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, geografik shroitning har xilligi turli madaniyatlar uchun asos bo'ladi. Ammo shuni yodda tutishimiz lozimki, garchi geografik omillar madaniyatning shakllanishida muhim rol o`ynasada, ular bevosita sababchi emas, balki cheklovchidir. Hatto geografik sharoitlar bir xil bo`lgan hududlarda ham madaniyatlar farq qilishi mumkun. Inson moslashuvchan va harakatchan bo`lganligi uchun madaniy o`zgaruvchanlik mavjud. Insonlar ongi va tafakkuri rivojlanib borishi natijasida turli-tuman ixtiro va kashfiyotlar ham madaniy o`zgaruvchanlikni yuzga keltiradi. Jamiyatdagи ijtimoiy o`zgarishlar, texnologik omil ta'sirining ortib borishi urf-odatlar, e'tiqodimizga ta'sir qilmoqda. Texnologik jixatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning, texnologik jixatdan qoloq mamlakatlardan madaniy jixatdan farqli tomonlarini ko`rishimiz mumkun. Hind xalqining madaniyatini tahlil qiladigan bo`lsak, faz kepksaidan jinna kepkasiga o`tish iqtisodiy va siyosiy sharoitlar, ishlab chiqarish usulining o`zgarishi tufayli yuz bergen. Madaniyat va jamiyat o`rtasidagi o`zaro ta'sirning 3 ta asosiy tipik holati mavjud:

1. Jamiyat madaniyatga nisbatan dinamik va kamroq ochiq tizim. Madaniyat mazmunan qarama-qarshi qadriyatlarni ham taklif qiladi va jamiyat uni rad etishga intiladi. Bu jabxada jamiyat madaniyatning ilg'or rivojlanishiga to`sinqinlik qiladi va mavjud qadriyatlarni dogmatizatsiya qiladi. Bu esa shaxs rivojlanishi uchun noqulay sharoitlarni yuzaga keltiradi.

2. Jamiyat va madaniyatdagи qarama-qarshilik. Qachonki jamiyatga siyosiy va ijtimoiy zarbalar bo`lsa, bu holat madaniyat normalari va qadriyatlarning yangilanishiga olib keladi. Jumladan, davlat to'ntarishlari, inqiloblar bo`lganida hayotda bir qancha vaqt yangi qahramon, yangi ideallar, yangi mazmunlar izlanadi.

3. Jamiyat va madaniyatning uyg'un va muvozanantli o'zgarishi. Bunda an'anaviy uzluksizlik saqlanib qoladi va shaxsning konstruktiv, izchil va uyg'un rivojlanishi amalga oshadi.

Garchi madaniyat kishilar jamoaviy hayotining mahsuli bo`lsada, uning yaratuvchilari va ijrochilari individualdir. Shu o'rinda har bir shaxs madaniyatga nisbatan bir necha shakllarda harakat qiladi:

1. Shaxs -madaniyat mahsuloti. Sababi, inson madaniyat orqali tarbiyalanadi.

2. Shaxs-madaniyatning iste'molchisi. Chunki inson zotigina madaniyat yutuqlaridan foydalanadi.

3. Shaxs- madaniyatning "yaratuvchisi", "ishlab chiqaruvchisi". Chunki inson yangi madaniyat shakllarini yaratadi va mavjudlariga ham o`zgartirishlar kiritadi.

4. Shaxs- madaniyatning "tarjimoni". Chunki inson madaniy tajribalarni turli zamон, turli vaqt oralig'ida saqlaydi va uzatadi.

Shaxsning madaniy qadriyatlari individual hatti-harakatlarini yo`naltirib turadi. Bu esa o`z navbatida shaxsni madaniyatning faol subyektiga, madaniy qadriyatlarni yaratuvchisi va tashuvchisiga aylantiradi. Inson tug'ilishi bilan madaniyatga duch kelar ekan, odam bolasi o`zini qayta yaratadi va o`zgartiradi. Madaniyat bu nafaqat faoliyat, balki shu faoliyatni tashkil etish usuli hamdir. Madaniyatning maqsadi uning asosiy funksiyalarida ifodalanib kelinadi. Inson dunyoni bilish orqali , avvalo o`zini taniy boshlaydi. Maxsus belgilar yordamida bilish natijasida to`plangan madaniy tajribalar avloddan –avlodga, bir xalqdan ikkinchisiga o`taveradi. Shunisi ahamiyatlici, inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan hech bir narsa alohida bir shaxsning yoki ijtimoiy guruhning monopol mulkiga aylanmaydi.

Inson faoliyati jarayonida vujudga keladigan hech narsa shaxs yoki alohida ijtimoiy guruhning monopol mulkiga aylanmaydi. Madaniy yutuqlarning egasi umumiy ijtimoiy sifatida insondir. Madanaiyatning yana bir muhim xususiyati shundaki, u uyg'un holda tashkil qilainadi. Madaniyat ma'lum darajada insonlarning o`zlashtirish qobiliyatiga asoslanadi. Sababi odamlar madaniyatning barcha

tomonlarini o`zlashtira olmaydi. Ulardan ba`zilari biror narsalarni o`zlashtiradilar, boshqalari esa boshqa xususiyatlarni o`zlashtiradilar. Madaniyat alohida shaklda rivojlanmaydi va uzatilmaydi. Madaniyat umumiy qadriyatlardan kelib chiqqanligi sababli u ijtimoiy xususiyatga ega. Madanaiyat universal hodisa bo`lib, dunyoda madaniyatsiz jamiyatni topish qiyin. Madaniyatning yana bir xususiyati uning uzluksiz jarayon ekanligidadir. Madaniyat insonni erkak yoki ayol qiladi va uning hatti-harakatlarini tartibga soladi, hamda uni jamiyat hayotiga tayyorlaydi. Bu esa unga yashash uchun to''liq moslashuvni taklif qiladi. Haqiqiy inson bo`lish uchun shaxs madaniy oqimda ishtirok etishi kerak. Inson tug'ilishidan to o`limigacha o`z madaniyatining asaridir. Uning madaniyati uning hatti-harakatlarini boshqaradi va cheklaydi. Uning madaniyati uning ongiga kiradi va ko`rish qobiliyatini yopadi. Shunda u ko`rishi kerak bo`lgan narsani ko`radi, ochlikga o`rgatilgan narsadan o`zini cheklaydi va kerak bo`lsa och qoladi.

Shaxs –bu yashaydigan va faoliyat ko`rsatadigan madaniy muhitning mahsulidir. Har bir shaxs muayyan bir ijtimoiy-madaniy muhitda tug'iladi. Ammo u tug'ilganida ijtimoiy bo`lib tug'ilmaydi. Madaniyat namunasi shaxsni shakllantiradi. Demak, insonning madaniy muhitda yashashi xuddu baliq suvda yashashi zaruratidek tabiiy va muqarrar. Insonning g'oyalari, qarashlari, qadriyat normalarini egallashi madaniyat bilan belgilanadi.

Xulosa. Inson ham madaniyat ham bir-biridan ajralgan holda mavjud bo`la olmaydi. Faqat to`plangan tajriba, turli madaniyatlarni bir-biridan makon va vaqt ajratib turadi. Madaniyat tufayli muayyan faoliyat va xulq –atvor namunalariga rioya qilinishi ta'minlanadi. Bu avlodlar tomonidan ijtimoiy tajribalarni madaniyat orqali uzatish asosida yuz beradi. Insonlar jamiyati muayyan qadriyatlarsiz, xulq-atvor normalarisiz mavjud bo`lmaydi. Ammo jamiyatda madaniyatlarning xilma-xilligi qadriyatlarning xilma-xilligini keltirib chiqaradi. Insoniyatning birligi uchun yagona qadriyatlar tizimi umuminsoniy qadriyatlarning mavjudligi muhim rol o`ynaydi.

Foydalanilgan aadbiyotlar ro`yxati:

1. Abul Hussain. Society and culture //International Journal of Scientific Research 12(01):40608 –40613.https://www.researchgate.net/publication/351770718_Society_and_culture
2. М.Г.Дьякона Теория и история мировой культуры/.[Электронный ресурс] Учебное пособие М.Г.Дьякова;М-во образования и науки Рос. Федерации, Волгогр. гос.архит.-строит. ун-т. 2015. –С.129.
3. N.M.Koshanova Turli tarixiy davr kontekstlarida intellektual madaniyat masalasi//FarDU.Illmiy xabarlar.№1-2024.-B.72-76.

ISLOMDA KASB ODOBLARI

**Turgunova Nargiza A'zamjon qizi
CHDPU fizika va astronomiya 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Koshanova Nilufar Maxsudovna**

**CHDPU dotsenti
koshanovnilufar512@gmail.com**

Annotatsiya: Tadqiqot ishimizda kasbning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati islom dini axloqiy normalari asosida tahlil qilingan, shuningdek, "kasb" tushunchasining diniy asoslari, Qur'oni Karim payg'ambar sunnatlari asosida yoritilib, insonning halol rizq topish maqsadida kasb-hunar egallashi zarurligi o`rganilgan.

Kalit so'zlar: kasb, halol rizq, harom, Qur'on, hadis, musulmon axloqi, mehnat, axloqiy qadriyatlar, kasb-hunar, halollik, sadoqat, puxtalik, mehnatsevarlik.

Аннотация: в нашей исследовательской работе анализируются роль и значение профессии в жизни на основе моральных норм ислама, анализируются на основе человеческих норм, религиозные основы понятия «профессия», сунна Священного Корана. выделены и профессия необходима человеку для достойного заработка.

Ключевые слова: профессия, халяльное питание, харам, Коран, хадисы, мусульманская этика, труд, моральные ценности, профессия, честность, верность, тщательность, трудолюбие.

Kirish. Odam zotining ibtidoiy davrda mehnat qilishni o`rganishi uni inson sifatida yuksaltirib bordi. Mehnat bu inson kamolotining asosiy vositasi bo`lib, inson ongli mehnat qiluvchi yagona mavjudot hisoblanadi. Odamzod tafakkuri orqali olamni teranroq anglab borgani sayin mehnatning turli shakllarini yaratib kelmoqda. Bugungi kunda dunyoda 60 mingga yaqin, mamlakatimizda esa 6 mingdan ziyod kasb turlari mavjudligi aniqlangan. [3] Bundan uch asr oldin ularning soni 500 ga yaqin bo`lgan bo`lsa, kishilik jamiyat qanchalik tez rivojlangani sayin ularning soni yanada ortib bormoqda. Kasb bilan shug`ullanish davomida insonlar jamiyatda qabul qilingan muayyan norm ava me`yorlarga rioya qilishi lozim bo`ladi. Kasb-kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg`uloti turi, muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab qiladi. Kasb-nazariy bilimlar va amaliy ko`nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi. Ba`zi kasblar shunchalik nostandardki, ko`pchilik ular haqida eshitmagan va hatto ularning mavjudlini ham bilishmaydi. Kasb("ega bo`lish", "o`zlashtirish") - diniy-axloqiy kontseptsiyani anglatuvchi atama. [1] O`z navbatida har bir inson o`z kasbi bilan boshqa insonlarning hojatini chiqaradi. Shunday qilib, barcha insonlar dunyo hayotida yashash davomida hayotiy ehtiyojlarini ta'minlash borasida bir-birlari bilan uzviy bog`langan. Har bir inson boshqasiga qilgan xizmati evaziga haq olishi tabiiy holatga aylangan. Mazkur tabiiy holat kishilar orasidagi maishiy aloqalarning asoslaridan biri hisoblanadi. Insonning bu dunyoda hayot kechirish uchun olib borishi lozim bo`lgan ishlaridan biri rizq talab qilishidir. Rizq talab qilishda esa har kishining bilimi, ishi va kasb-hunari qo`l keladi. Kasb qilish inson hayotidagi doimiy va zaruriy amal bo`lgani uchun Quronni Karimda, payg`ambar sunnatlarida va shariat ahkomlarida bu amalga katta ahamiyat berilgan.

Hozirgi vaqtida kasblar soni juda ham ko`p bo`lib, dinda ularning halol va harom turlari ajratiladi. Musulmon inson qaysi ishga qo`l urmasin, uni puxta, chiroyli va mukammal qilishi lozim. Albatta buning uchun, inson o`zining kasbini sevishi kerak, ya`ni shu kasb bilan shug`ullanayotgan vaqtida, uni chin ko`ngil bilan bajarishi lozim.

Hadislarda “Ilmga ilm olmoq yo`li bilan erishilgaylar. Ilmu haunarni Xitoya
borib bo`lsa ham o`rganinglar. Ilm egallnag . “Ilm sahroda do`s, hayot yo`llarida
tayanch, yolg`iz damlarda yo`ldosh, baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg`uli onlarda
madadkor, odamlar orasida zeb-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda esa
quroldir”,-deyilgan. Bundan ko`rinadiki, inson o`z kasbiga sodiq bo`lishi va kasbiga
qiziqishi ham iymonlilikning belgilaridan hisoblanadi.

Islomda savdogarlik(tijorat kasbi) kasbining birinchi odobi sifatida niyatni
to`g`rilashi lozim deyiladi. Tijorat kasbining ikkinchi odobi tijorat ilmini yaxshi
bilishi lozim deyiladi. Mazkur kasbning keyingi odobi zararni daf qilish va foydani
jalb qilishdan muqaddam turishi lozim deyiladi. Rivoyat qilinishicha xalifa Umar
ma'lum bir bir guruh kishilarini savdogarlarning savdo ilmini bilish bilmasliklarini
nazorat qilish uchun jo`natadi. Islom ulamolari sotiladigan mol tannarxining 30
%igacha qo`yishni tavsiya qiladilar.

Afsuski, Hozirgi kunda mamlakatimizda o`zi tahsil ko`rayotgan sohasiga
qiziqishi bo`limgan, ammo tanlagan sohasida nima ish qilishini ham bilmaydigan
minglab talabalar mavjud. 2017-yil statistik ma'lumotlariga ko`ra O`zbekistonda
mehnat faoliyatida 700 mingga yaqin ishchi ish faoliyatida kasbiy nomutanosib
joylashganligi aniqlangan. O`zligini anglamagan insonlar jamiyatda muammolarni
yuzaga keltiradi. Islomda insonning o`zini anglashi, xudoni tanishdan boshlanadi
deyiladi. Inson dunyoda yashar ekan, mehnati, kasbi orqali rizq topishga,o`z
extiyojlarini qondirishga harakat qiladi. Ammo har bir inson o`zi tanlagan kasbi
asosida jamiyatga foyda keltirishni asosiy maqsad sifatida belgilashi lozim.
Jamiyatda har bir inson qanday kasbda bo`lmisin, yaxshi ishchi, eng yaxshi kosib,
yaxshi dehqon, yaxshi muhandis, yaxshi xizmatchi, yaxshi tabib, yaxshi o`quituvchi,
hullas, har bir kasbning eng mohiri, eng omili, eng tadbirli bo`lishga harakat qilishi
lozim. Ajdodlarimiz farzand tarbiyasida eng avvalo mehnat tarbiyasini birinchi
o`ringa qo`yganlar. O`zlari ham mehnatsevarlikda doimo farzandlariga namuna
bo`lganlar.

O`zi bilmagan faoliyat bilan shug`ullanish, hunar sirlarini bilmagan holda
bilaman deyish, ish beruvchi tarafni aldash dinda qoralangan. Islom shariatida bu

kabi ishni qilish katta gunoh hisoblanadi. Chunki shifokorlik kasbini bilmaslik asosida qancha insonlar hayotiga, sog'ligiga xavf solinsa, o'qituvchi -pedagog o'z kasbiga noloyiq bo'lsa minglab xalq farzandini savodsiz qilib qo'yadi. Demak, jamiyatda har bir inson kasbni o'z qobiliyatidan kelib chiqqan holda ongli ravishda tanlashi va unga ma'suliyat bilan yondashishi, jamiyat taraqqiyotida muhim hisoblanadi. Zero mehnat orqali inson o`zining va o`zgalarning qadrini biladi, mehnatsiz kelgan boylik inson rihiyatini buzadi, har qanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2024.
https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Miliy%20Ensiklopediyasi%20-%20Qo'shimcha.pdf
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ijtimoiy odoblar” Toshkent: “Hilol nashr”, 2024.
3. G.K.Masharipova Kasbiy ma'naviyat. “Fan ziyosi”, T.:2022.-B.259.
- 4.Doktor Muhammad Bo'zdag' “Qalbimdasan, Alloh” Toshkent: “Zumar books”, 2023.

ISLOM -MA'RIFATPARVAR DIN SIFATIDA

Boltaboyeva Mukarramxon

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti

Fizika va kimyo fakulteti fizika va astronomiya 23-3guruh talabasi

mukarramkhon2006@gmail.com

Ilmiy rahbar: Koshanova Nilufar Maxsudovna

CHDPU dotsenti

koshanovnilufar512@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda islomning ma'rifatparvarlik jihatlari, islomda ta'limga bo'lgan munosabat, islom g'oyalarining inson kamolotidagi o'rnini